

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 1 (1062), 2024-yil 1-yanvar, dushanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI



Aziz vatandoshlar!

Jonajon diyorimizga yangi — 2024-yil kirib kelmoqda.

Mana shu shukuhli damlarda duogo'y otaxon va onaxonlarimizni, mehribon opa-singillarimizni, barcha soha va tarmoqlar vakillarini, azmu shijoatli yoshlarimizni, chet ellardagi qadri vatandoshlarimizni — ko'pmillatli butun xalqimizni ushbu qutlug' ayyom bilan chin qalbidan samimiy tabriklayman.

Muhtaram do'stlar!

Albatta, hayot bor ekan, uning yutuq va quvonchlari, tashvish va muammolari ham bo'lishi tabiiydir. Ammo inson va xalq aql-zakovati, halol mehnati, mustahkam irodasi bilan har qanday sinovlardan munosib o'tishga qodir.

Shu ma'noda, 2023-yil el-yurtimiz uchun qut-barakali va omadli keldi. Eng muhimi, yurtimizda tinchlik-osoyishtalik, turli millat vakillari o'rtasida do'stlik va hamjihatlik hukm surmoqda.

Tariximizda birinchi marta umumxalq referendumida yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qildik. Kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan "O'zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirishni boshladik.

Ko'plab nufuzli anjumanlarni yuqori saviyada o'tkazdik.

Xalqaro maydonda muhim tashabbuslarni ilgari surdik.

Barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolishga erishdik.

Respublikamizda yuqori texnologik zamonaviy sanoat korxonalarini, logistika va infratuzilma tarmoqlari, bog'cha va maktablar, madaniyat va sport obyektlari barpo etildi. Yangi-yangi ish o'rinlari ochilmoqda. Shahar va qishloqlarimiz obod bo'lib, aholi hayot darajasi yuksalib bormoqda.

Muhtaram do'stlar!

Inson qadrini ulug'lash, aholimiz manfaatlarini ta'minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish bizning asosiy vazifamizdir. Shu maqsadda 2024-yilni mamlakatimizda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili", deb e'lon qildik.

Yangi yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishni yanada kuchaytiramiz. Ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, "yashil" va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz.

Yangi ish o'rinlari tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori ko'paytiriladi. Xotin-qizlar va nuroniyalarni, yordamga muhtoj insonlarni qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat beramiz. Ijtimoiy sohalar rivojini mutlaqo yangi bosqichga ko'taramiz.

Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini oshirish ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Muxtasar aytganda, yangi hayotni, Yangi O'zbekistonni barpo etish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni to'liq safarbar etamiz.

Qadri va muhtaram vatandoshlarim! Sizlarni Yangi yil bayrami bilan yana bir bor qutlab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, xonadonlaringizga tinchlik va fayzu baraka tilayman.

Har bir oila, har bir mahalla, butun yurtimiz farovon bo'lsin!

Go'zal Vatanimizni Yaratganning o'zi panohida asrasin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

O'ZBEKISTON XALQI VA PREZIDENTIGA YANGI YIL BAYRAMI MUNOSABATI BILAN SAMIMIY QUTLOVLAR

Xorijiy davlatlar, parlamentlar va hukumatlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari, taniqli jamoat va din arboblari O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga kirib kelayotgan 2024-yil munosabati bilan samimiy tabriklar yo'llamoqda.

Qutlovlarda mamlakatimiz yetakchisi rahbarligida Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida ortga qaytmas tus olgan islohotlar dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani qayd etilgan. Mamlakatimizning pragmatik tashqi siyosati yuqori samara berayotgani,

buning natijasida yurtimiz xalqaro nufuzi yuksalib borayotgani ta'kidlangan.

Xorijiy hamkorlar O'zbekistonning ko'pmillatli xalqiga farovonlik, yangi muvaffaqiyatlar, tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tilaklarini izhor etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi OliylarigaHurmatli Shavkat Miromonovich!
Yangi yil bayrami munosabati bilan samimiy tabriklarimni qabul qilgaysiz.

Yaqinda Moskvaga amalga oshirgan rasmiy tashrifingiz O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarining mustahkamligini to'liq tasdiqladi, o'zaro manfaatli hamkorlikning yangi yo'nalishlarini belgilab olish imkonini berdi.

Kelayotgan yilda ham konstruktiv muloqot va turli sohalarida istiqbolli ikki tomonlama loyihalarni amalga oshirish bo'yicha birgalikdagi ishlarni, MDH, SHHT va boshqa ko'p tomonlama tuzilmalar doirasidagi

sa'y-harakatlar muvofiqlashtiruvini davom ettirishimizga ishonaman. Bu, hech shubhasiz, davlatlarimiz fuqarolarining tub manfaatlariga mosdir, Yevrosiyo makonida xavfsizlik, barqarorlik va farovonlikni ta'minlash maqsadlariga javob beradi.

Sizga, hurmatli Shavkat Miromonovich, oilangiz a'zolari va yaqinlaringizga mustahkam sog'liq, baxt-saodat va muvaffaqiyatlar, do'st O'zbekiston xalqiga esa tinchlik va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

Vladimir PUTIN,
Rossiya Federatsiyasi PrezidentiO'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich!

Kirib kelayotgan yangi 2024-yil munosabati bilan samimiy tabriklarimni qabul qiling!

Sizga sog'liq-omonlik va qardosh O'zbekiston xalqi farovonligi yo'lida yangi muvaffaqiyatlar tilayman.

Qosim-Jomart TOQAYEV,
Qozog'iston Respublikasi PrezidentiO'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi OliylarigaHurmatli Shavkat Miromonovich!
Sizni kirib kelayotgan yangi 2024-yil bilan chin dildan muborakbod etaman!

Yakunlanayotgan yil Qirg'iziston — O'zbekiston munosabatlarida jadal rivojlanish yili bo'ldi. Uchrashuvlarimiz natijasida kelishuvlarga erishildi va qo'shma loyihalar amalga oshirilmog'da.

Ishonchim komilki, qirg'iz-o'zbek do'stligi har qachongidan ham mustahkam bo'ladi, yaqin munosabatlar va o'zaro qo'llab-quvvatlash kuchayib boraveradi.

Birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan Qirg'iziston — O'zbekiston munosabatlarini bundan buyon ham qardosh xalqlarimiz manfaatlarini yo'lida mustahkamlanib borishi va izchil rivojlanishiga ishonaman.

Hurmatli Shavkat Miromonovich, Sizga mustahkam sog'liq, baxt-saodat, mas'uliyatli davlatchilik faoliyatingizda katta muvaffaqiyatlar, qardosh O'zbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilayman!

Hurmat bilan,
Sadir JAPAROV,
Qirg'iz Respublikasi PrezidentiO'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga

Qadri Shavkat Miromonovich!

Kirib kelayotgan yangi 2024-yil munosabati bilan samimiy tabriklarim va eng ezgu tilaklarimni qabul qilgaysiz!

Yakuniga yetayotgan 2023-yilda Tojikiston — O'zbekiston yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarida ijobiy rivojlanish sur'atini saqlab qolganimizni ta'kidlashdan mamnunman.

Bugun birgalikdagi izchil sa'y-harakatlar tufayli Tojikiston va O'zbekiston munosabatlari birodar xalqlarimizning tub manfaatlariga mos holda hamkorlikning turli sohalarida yangi amaliy mazmun bilan boyimoqda.

Bunga ko'p jihatdan ishonchga asoslangan muntazam muloqotimiz, mamlakatlarimiz o'rtasidagi oliy va yuqori

darajadagi doimiy aloqalar xizmat qilmoqda.

Bo'lajak 2024-yilda Tojikiston Respublikasiga tashrifingiz qo'shni mamlakatlarimiz o'rtasidagi davlatlararo muloqotlarning konstruktiv rivojlanishiga sifat jihatidan yangi sur'at bag'ishlashiga qat'iy ishonaman.

Yangi yil arafasida Sizga, hurmatli Shavkat Miromonovich, chin ko'ngildan mustahkam sog'liq, baxt-saodat va yangi muvaffaqiyatlar, birodar O'zbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilayman!

Hurmat bilan,

Emomali RAHMON,
Tojikiston Respublikasi PrezidentiO'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
Janobi Oliylariga

Muhtaram Shavkat Miromonovich!

Kirib kelayotgan 2024-yil munosabati bilan eng samimiy va iliq tabriklarimni qabul qiling.

Sizga mustahkam sog'liq, baxt-saodat va barcha ishlaringizda katta muvaffaqiyatlar tilayman.

Yangi yil barchamizga tinchlik, farovonlik va ravnaq olib kelsin!
Hurmat bilan,Serdar BERDIMUHAMEDOV,
Turkmaniston Prezidenti

Davomi 2-beta

Ehtirom va iftixor
ZAMON QASRI

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tashkil topganiga to'g'on yil to'layotir. Vaqt va zamon shiddat bilan o'tmoqda. Bu yorug' kunlarga yetib kelmog'imiz oson bo'lmadi. Qancha sinovlarni boshdan o'tkazdik. Bu og'ir va murakkab yo'llar biz — adiblarni tobladi, irodamizni chin qildi. Ona Vatan, xalqimizga mehr va sadoqatimizni ziyoda qildi. Kelajakda uchrashi mumkin bo'lgan turli qiyinchilik va mashaqqatlarni yengib o'tishda bu noyob tajriba, ma'naviy immunitet bizga va bizning mushitariy-o'quvchilarimiz uchun mustahkam zamin bo'lg'ay, insho'lah.

Biz yangi o'zgarishlar davrida, yangi zamonada yashamoqdamiz. G'urur va hayratimizni ichga yashirolmay she'rga soldik. Zamonamiz va xalqimiz oldida burchimiz ham, qarzimiz ham ko'p.

Davlatimiz rahbari muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bundan olti yil burun — 2017-yilning 23-dekabr kuni Adiblar xiyobonida amalga oshirilayotgan keng ko'lami bunyodkorlik ishlari, Yozuvchilar uyushmasining yangi zamonaviy binosi bilan tanishar ekan, yozuvchi-shoirilar bilan muloqot chog'ida bu binolar, yodgorlik majmualariyu shiyponlar, haykallar va yo'laklar doimo madaniyat ahli va tolibi ilmlar bilan gavjum bo'lishi, ijod, tafakkur va tarbiya maskaniga aylinishi kerakligini ta'kidlagan edi.

Ming shukrki, bu orzu-niyatlarimiz bugun amalga oshmoqda.
Elu yurtimiz ravnaqi, aziz farzandlarimizning

baxt-u kamoli yo'lida, ona Vatanimiz saodati uchun fidokorona mehnat qilib, yangi zamon binosini matonat bilan tiklayotgan xalqimizga, uning ulug' farzandlariga ehtirom va tahsinlar bo'lsin.

Alisher Navoiy bobomiz ham xuddi shu asnoda Adiblar xiyobonining baland va muhtasham ayvonidan she'riy duo yo'llab turganday:

G'araz ul erdikim, bu qasri oliy,
Ki hargiz bo'lmag'ay, yo rab, zavoli.
Binoyedurki, shah bunyod qilmish,
Zamona qasridek obod qilmish.

Davomi 6-beta

BIZ VA DUNYO
2023-YIL
O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA
QANDAY IZ QOLDIRDIDI? 3DILDAGI GAPLAR
HAYRATLAR
REAL VOQEELIKKA
AYLANDI
lekin bu hammasi emas... 4

